XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 28 - dekabr VI-85-155-7-104-K/23 Toyloq tuman hokimligi

Samarqand viloyati Toyloq tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni, xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-94-126-7-0-K/23-sonli qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining sakson beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni, hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-94-126-7-0-K/23-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-94-126-7-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq, Toyloq tumani budjetiga Samarqand viloyati budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfert 82 168 709,0 ming so‘m, shundan mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlar 37 336 000,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi, tuman budjetining aylanma kassa mablag‘i 1 251 000,0 ming so‘m miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun

qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun tuman budjeti daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjetidan 2024-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1 804 089,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

6. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xujamurodov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Sharipov), tuman soliq inspeksiyasi (Sh.Sharipov)ga:

budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish;

tegishli ravishda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Mirzayev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xujamurodov) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengashi Raisi **B.Babonazarov**

Xalq deputatlari Toyloq tuman
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-85-155-7-104-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Toyloq tumanining tuman budjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**120 482 500,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	11 635 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	36 416 000,0
3	Aksiz solig‘i, jami	9 378 000,0
	shu jumladan:	
	- yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	*9 378 000,0*
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 645 000,0
5	Yuridik shaxslar yer solig‘i	7 635 500,0
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	12 463 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	22 300 000,0
8	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 080 000,0
9	Korxonalar aylanmasidan soliq	12 900 000,0
10	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	130 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 850 000,0
12	Yig‘imlar	1 050 000,0

Xalq deputatlari Toyloq tuman
Kengashining
2023-yil 28-dekabrdagi
VI-85-155-7-104-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Toyloq tumanining tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**202 651 209,0**
	shu jumladan:	
1	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	28 040 687,0
2	Tuman tibbiyot birlashmasi	90 902 424,0
3	Tuman soliq inspeksiyasi	4 916 067,0
4	Tuman madaniyat bo‘limi	6 936 058,0
5	Tuman yoshlar siyosati va sport bo‘limi	12 895 812,0
6	Tuman qishloq xo‘jaligi sohasi	2 580 000,0
7	Tuman irigatsiya bo‘limi	1 140 000,0
8	Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	4 720 548,0
9	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 518 122,0
10	Tuman hokimligi	49 001 491,0